

O‘ZBEKISTONDA XALQARO TURIZMNING RIVOJLANISHI VA TURISTIK SALOHIYATI

Abduvaliyeva Dildora

Magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmning mazmun-mohiyati, shakl va yo‘nalishlari, iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotdagi o‘rni, zamonaviy tendensiyalari va uning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri yoritilgan. Turizm infratuzilmasi, xizmatlar sifati, kadrlar tayyorlash tizimi hamda raqamli texnologiyalar ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Turizm, sayyohlik industriyasi, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma, ekologik turizm, madaniy meros, mehmondo‘stlik, raqamli texnologiyalar, turistlar oqimi, barqaror rivojlanish.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida turizm dunyoning eng yirik, eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiyotga bevosita foyda keltiradi, balki mamlakatning xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlaydi, madaniy almashinuvni kengaytiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va hududlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Turizm bugun ko‘plab davlatlar iqtisodiyotida strategik tarmoq sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, uning samarali rivojlanishi ijtimoiy barqarorlik, infratuzilma takomillashuvi va investitsiyalar oqimini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston kabi boy tarixiy-madaniy merosga ega davlatlar uchun esa turizm milliy iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri bo‘lishi tabiiydir. Shu bois turizmning nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari, xizmat ko‘rsatish sifati, zamonaviy tendensiyalari hamda rivojlanish strategiyalarini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Turizm — bu shaxsning odatdagi yashash joyidan ma’lum muddatga dam olish, davolanish, bilim olish, ishbilarmonlik yoki boshqa maqsadlarda safar qilishi jarayonidir. Turizm mazmuniga faqatgina sayohat emas, balki xizmat ko‘rsatish, infratuzilma, logistika va madaniy almashinuv tizimi ham kiradi³⁰¹.

Har bir turizm yo‘nalishi o‘zining alohida infratuzilma, xizmat ko‘rsatish va marketing yondashuvini talab qiladi. Turizm jahon iqtisodiyotida eng katta daromad keltiruvchi sohalardan biridir. U yalpi ichki mahsulotga hissa qo‘shadi, ish o‘rinlari yaratadi (gidlardan tortib mehmonxona xodimlarigacha), xorijiy valyuta tushumini oshiradi, transport, savdo, hunarmandchilik, xizmat ko‘rsatish kabi tarmoqlarni rivojlantiradi, hududlar infratuzilmasining yangilanishiga turtki bo‘ladi, investitsiyalarni jalb qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi, rivojlangan davlatlarda turizm YIMning 10–15 foizini tashkil etishi holatlari ko‘p uchraydi. Bu uning imkoniyatlari naqadar katta ekanligini ko‘rsatadi³⁰².

O‘zbekistonning qadimiy shaharlari – Samarqand, Buxoro, Xiva xalqaro sayyohlar orasida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Samarqand va Buxorodagi tarixiy obidalar, jumladan, Registon, Buxorodagi Ark qal’asi va Xivadagi Ichan-qal’a YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Hozirgi kunda mamlakat bo‘ylab 7 ta yirik tarixiy obida va madaniy meros ob’ektlari YUNESKO ro‘yxatida joylashgan.

O‘zbekistonning eng yirik turistik salohiyatlaridan biri uning boy madaniy va tarixiy merosidir. Hozirda mamlakatda 8000 dan ortiq madaniy va tarixiy obidalar ro‘yxatga olingan. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlardagi tarixiy obidalar xalqaro sayyohlar orasida katta qiziqish uyg‘otadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston bo‘ylab 100 dan ortiq muzey faoliyat ko‘rsatmoqda, jumladan, O‘zbekiston Davlat San’at muzeyi, Samarqanddagi Afrosiyob muzeyi, Buxorodagi Ark muzeyi,

³⁰¹ Cooper, C. *Tourism: Principles and Practice*. Oxford University Press, 2021

³⁰² Mahmudov, A. *Turizm asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 2020.

Xivadagi Ichan-qal'a muzeyi kabi mashhur muzeylar xalqaro mehmonlar uchun qiziqarli yo'nalishlardir.

O'zbekiston tabiiy landshaftlar va ekologik turizm uchun katta imkoniyatlarga ega. Tog'lar, cho'l hududlari va milliy bog'lar ekologik turizm uchun ideal joylar. Jumladan, Zomin, Ugam-Chotqol va Nurata davlat milliy bog'lari eko-turistlar uchun jozibador maskanlardir. O'zbekistonda, shuningdek, agro-turizm ham rivojlanmoqda. Turistlar qishloq xo'jaligiga oid faoliyat bilan tanishib, milliy dehqonchilik urf-odatlarini bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Agro-turizmni rivojlantirishda Surxondaryo va Toshkent viloyatlari yetakchi hisoblanadi.

Turizmning muvaffaqiyati bevosita infratuzilma rivojiga bog'liq. Uning asosiy tarkibiy qismlari transport tizimi (aviatsiya, temir yo'l, avtobus, yo'llar), mehmonxona xo'jaligi, oshxona va umumiy ovqatlanish tizimi, ekskursiya xizmatlari, turistik kompaniyalar, aloqa va internet tizimi, bank, valyuta ayirboshlash, sug'urta xizmatlari, sifatli infratuzilma turistlar oqimini ko'paytiradi, mamlakat imidjini oshiradi, takroriy tashriflar ehtimolini kuchaytiradi.

Turizm boshqa sohalarga nisbatan tez taraqqiy etadigan tarmoqdir, chunki bu soha mamlakatimiz uchun unchalik katta investisiyani talab qilmasdan rivojlanishi mumkin bo'lgan sohadir. Boshqa sohalar, jumladan havo, temiryo'l, avtomobil transporti, ovqatlanish va savdo shahobchalari, mehmonxonalar rivoj topsa o'sha joyda turistik ob'ektlar mavjud bo'lsa bimalol turizmni rivojlantirish mumkin. Turizm sohasidagi mutaxassislarining fikricha, u XXI asrda dunyo miqyosida eng ustuvor foyda keltiruvchi sohaga aylanadi. Hozir u dunyo bo'yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi. Bu soha dunyo sanoati va qishloq xo'jaligidan o'zib ketdi. Turizmning tez rivojlanishiga yana bir sabab, u yuqori darajadagi katta ilmiy tadqiqot xarajatini va quvvatni ko'p sarf qiladigan texnologiyani talab qilmaydi.

Biroq, turizm boshqa sohalarni rivojlantirishni taqozo qiladi. Shu tufayli ushbu soha bilan ko'pgina xizmat ko'rsatuvchi sohalar bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda rivoj topmog'i lozim. Turizmning yuqori daromad keltiruvchi soha bo'lganligi tufayli ko'pgina davlatlar va tadbirkorlar uning rivojlanishi uchun katta e'tibor bermoqdalar. Ular yangidan yangi mehmonxonalarni qurmoqda, eskilarini qayta ta'mirlanmoqda, asosiy maqsad esa ularni ham jahon standartlari talablariga moslashtirish. Bunga birgina Samarqand shahrida qurilgan o'nlab shaxsiy mehmonxonalarni misol keltirish mumkin. Ular hech kimning ta'ziqi yoki ko'rsatmasiz o'z tashabbuslari bilan qurilgan ob'ektlardir. Maqsadi shu sohani rivojlantirib katta foyda olish. Bu esa o'z navbatida, turizmni rivojlantirish uchun eng muhim omillardan biridir.

Bugungi globallashtirish jarayonida qariyb barcha mamlakatlar iqtisodiy faoliyatida turizm sektori yuqori daromad manbai sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur sohaning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta'siri nafaqat valyuta tushumi, ish o'rnini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, balki ajdodlardan meros qolgan madaniyat va qadriyatlarining saqlashining bosh omilidir.

Dunyo bo'yicha 2023-yilda sayohat va turizm 7,6 trillion AQSH dollari, ya'ni umumiy YalMning 10 %i va 277 million ish o'rni (har 11 dan 1 kishi turizm sohasida ishlaydi) ga teng bo'ldi. Yaqin yillarda turizm dunyo miqyosida avtomobil sanoati, moliyaviy xizmatlar va sog'liqni saqlashga qaraganda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. O'tgan yil ham bundan mustasno bo'lmadi. Xalqaro turistlar tashrifi 1,14 mlrdga teng bo'ldi va bu ko'rsatkichning 46 %i rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi³⁰³.

O'zbekiston ham iqtisodiy o'sishda davom etdi. Ma'lumki, O'zbekiston turizm sanoatida katta imkoniyatga ega davlatdir. Bugungi kunda mamlakatimizda 4000 dan ortiq tarixiy obidalar va muzeylarimizda 2 mlndan ziyod qadimiy eksponatlar saqlanayotgani fikrimizning yorqin dalilidir. Shuningdek, Respublika bo'yicha jami 550 ta sayyohlik kompaniyasi turoperatorlari faoliyat yuritmoqda. Mintaqamizdagi tarixiy ofryektlar, arxitektura va shaharsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 110 ta xalqaro sayyohlik yo'nalishi bo'yicha sayyohlarga xizmat ko'rsatilmoqda. Bu yo'nalishlarning 65 tasi tarixiy madaniy meros ofryektlari, 30 tasi tabiiy rekreatsion, 15 tasi sog'lomlashtirish turizm elementlarini o'z ichiga olgan ekologik yo'nalishlardir. Hozirda yurtimizda

³⁰³ www.lex.uz

50 mingdan ziyod o‘ringa ega bo‘lgan 500 dan ortiq mehmonxona, motel va kempinglarda sayyohlarga xalqaro standartlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiy hayotida turizm sanoatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida turistlar qabul qiluvchi mamlakatga daromadni keltiradi, yuqori valyuta tushumini taminlaydi, aholini ish bilan bandlik darajasini oshiradi³⁰⁴. Turistlarga xizmat qilish uchun mehmonxona kerak boladi. Bu yerda ular ovqatlanadilar, turli tomoshalarga kiradilar va ularda qatnashadilar. Ko‘p hollarda agar ular xorijiy turistlar bo‘lsa, valyuta tushumining ko‘payishini taminlaydi. Turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy soha hamdir. Buning iqtisodiy samaradorligi bilan birga ma‘naviy, ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda katta. Shu tufayli ushbu sohaga davlat alohida e‘tibor berib, ma‘lum imtiyozlar ham belgilaydi. Odamlar bu imtiyozlardan faqat turist bo‘lganliklari uchun foydalanadilar. Bu ham turizmning o‘ziga xos xususiyati va katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatidan dalolat beradi. Imtiyozlar turistlarning bojxona postlaridan o‘tishda, soliq to‘lashda, chetga chiqishda pasportiga ruxsat berishlarida, havo va temir yo‘l transportlariga chiptalar olishda, ularni rasmiylashtirishlarda namoyon bo‘ladi.

Turizmning mahalliy aholi uchun ham katta foydasi bo‘lib, ular ish bilan ta‘minlanadi, turli millat, elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo‘ladilar va ularning turli an‘ana va qadriyatlari bilan tanishadilar, doimiy daromad olib turish imkoniyati ega bo‘ladilar, mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, mahalliy aholi imkon qadar o‘zlarining an‘ana va qadriyatlarini namoyish qilish uchun uni saqlab qoladilar va umtilganlarini tiklaydilar, mehmon kutishning jozibador an‘analarini tiklash bilan birga mehmondorchilik odoblarini takomillashtirib boradilar. Oxir oqibatda mahalliy aholining dunyoqarashi, madaniy saviyasi ham muttasil o‘shib boradi³⁰⁵.

Turizmning rivojlanishi davlat uchun ham juda foydalidir. Xususan, u turizmni rivojlantirish evaziga o‘z iqtisodiyotining yuksalishiga erishadi, davlat byudjetiga tushumlarning ko‘payishini ta‘minlaydi, tabiiy resurslarni asrab-avaylashga erishadi, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashga harakat qiladi, xalqlararo aloqalarga erishadi, madaniy aloqalar kengayadi, valyuta tushumi ko‘payadi va boshqalar. Turizm mahalliy aholi hayotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekistonda turizmning rivojlanish holatlarini tahlil qilar ekanmiz, yurtimizda turizm sohasiga bo‘lgan e‘tibor oshganini va tashrif buyuruvchilar salmog‘i ko‘payganini kuzatishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistonning xalqaro turizm bozorida o‘z o‘rnini egallayotganligidan dalolatdir. O‘zbekistonning 70% hududlarini cho‘l va adir mintaqasi egallaydi. Bu mintaqada hozircha 55 ta turistik resurs ro‘yhatga olingan. Bu resurslar 14 ta alohida - alohida mavzularda ekanligi bepayon cho‘l tabiati cho‘l hududlari xalqi hayoti, cho‘l hududlarining o‘simliklar olami va hayvonot dunyosidan mahalliy turizm va xalqaro turizmni rivojlantirishda foydalanilsa turistlar oqimini yanada oshirish imkoniyati yuzaga keltiradi³⁰⁶.

Bugungi kunda turizm sanoatining rivoji raqamli transformatsiya bilan chambarchas bog‘liq. Quyidagi texnologiyalar sohaning sifatini oshirmoqda: onlayn bron qilish tizimlari, mobil ilovalar va virtual gidlar, VR/AR texnologiyalari orqali virtual sayohatlar, raqamli marketing va ijtimoiy tarmoqlar, GPS navigatsiya va onlayn xaritalar, aqlli mehmonxonalar (“smart hotel”). Raqamli texnologiyalar turistlar uchun qulaylik yaratadi, xizmatlarni tez va aniq taqdim etishga yordam beradi.

XULOSA

Turizm zamonaviy jamiyatning eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi milliy iqtisodiyotning o‘shishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, infratuzilma takomillashuviga, xalqaro imidjning yuksalishiga xizmat qiladi. Zamonaviy tendensiyalar — raqamli texnologiyalar, ekologik yondashuv, sifatli xizmat ko‘rsatish tizimi — turizm sohasining samaradorligini yanada oshirmoqda. Shu bois turizmni kompleks rivojlantirish, xizmat sifati va infratuzilmasini takomillashtirish, kadrlar tayyorlashni kuchaytirish hamda milliy madaniy merosni keng targ‘ib qilish bugungi kundagi dolzarb vazifalardandir.

³⁰⁴ Mirzayev M. A., Aliyeva M. T. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011.

³⁰⁵ Eshev A.A., Norchaev A.N., Ruziev S.S. O‘zbekiston Respublikasida turizm xizmati va servis sohasini rivojlantirish yollari. T.: TDIU, 2007.

³⁰⁶ UNWTO (World Tourism Organization) rasmiy hisobotlari, 2018–2024 yillar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mahmudov, A. Turizm asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 2020.
2. Holloway, J.C. The Business of Tourism. London: Pearson Education, 2019.
3. Cooper, C. Tourism: Principles and Practice. Oxford University Press, 2021.
4. UNWTO (World Tourism Organization) rasmiy hisobotlari, 2018–2024 yillar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari.
6. Sharipov, B. Mehmondo‘stlik industriyasi va turizm xizmatlari. Toshkent, 2022.
7. Mirzayev M. A., Aliyeva M. T. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma.-T.: O‘zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011.
8. Файзиева С. Х. Основные направления развития туризма в Узбекистане. // Экономический вестник Узбекистана. № 3-4, 2004.
9. Eshev A.A., Norchaev A.N., Ruziev S.S. O,zbekiston Respublikasida turizm xizmati va servis sohasini rivojlantirish yollari. T.: TDIU, 2007.
10. www.moluch.ru.
11. www.lex.uz